ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

UDK: 158 Э 94
ORCID 0009-0008-0378-3027

ESHMURADOV OLMOSBEK ELAMANOVICH
TerDPI Amaliy psixologiya kafedrasi mudiri,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b professor
MAMMADIYEVA XURSHIDA MUXIDDINOVNA
TerDPI 70310301-Psixologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti
E-mail: eshmuradovolmosbek@gmail.com

RUHIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BOR BOLALARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda oilaviy munosabatlarning proyektiv usullar, xususan, E.G.Eydemillerning "Oilaviy sotsiogramma" testi orqali namoyon bo'lishi tadqiq etiladi. Tadqiqotning dolzarbligi bolaning ruhiy rivojlanishida oilaviy muhitning fundamental rol o'ynashi va bu munosabatlarni an'anaviy so'rovnomalar orqali aniqlash qiyinligi bilan belgilanadi. Maqolada bolalar tomonidan bajarilgan chizmalardagi grafik ko'rsatkichlar (shakllar o'lchami, fazoviy joylashuvi, chiziqlar bosimi va xarakteri) psixologik tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, chizmalardagi grafik deformatsiyalar va kompozitsion buzilishlar ko'pincha boladagi ichki xavotir, onaga bo'lgan kuchli bog'liqlik yoki oilaviy tizimda otaning o'rni pasayganligini aks ettiradi.Tadqiqot xulosalari maktab psixologlari uchun oiladagi yashirin konfliktlarni erta aniqlashda amaliy ahamiyatga ega.

KALIT SO'ZLAR: *Oilaviy sotsiogramma, proyektiv metodika, bolalar psixologiyasi, grafik tahlil, oilaviy munosabatlar, psixodiagnostika.*

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ УМСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ

АННОТАЦИЯ: В данной статье исследуются особенности проявления семейных отношений у детей младшего школьного возраста с помощью проективных методов, в частности теста «Семейная социограмма» Э.Г.Эйдемиллера. Актуальность исследования обусловлена фундаментальной ролью семейной среды в психическом развитии ребенка и сложностью выявления этих отношений с помощью традиционных опросников. В статье представлен психологический анализ графических показателей детских рисунков (размер фигур, пространственное расположение, нажим и характер линий). Результаты показывают, что графические деформации и композиционные нарушения в рисунках часто отражают внутреннюю тревожность ребенка, симбиотическую привязанность к матери или отчужденность отца в семейной системе. Выводы исследования имеют практическую значимость для школьных психологов в ранней диагностике скрытых семейных конфликтов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: *семейная социограмма, проективная методика, детская психология, графический анализ, семейные отношения, психодиагностика*.

PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF PREPARING CHILDREN WITH MENTAL DEVELOPMENTAL DISABILITIES FOR FAMILY LIFE

ABSTRACT: This article explores the manifestations of family relationships in primary school children through projective methods, specifically E.G. Eidemiller's "Family Sociogram" test. The relevance of the study is determined by the fundamental role of the family environment in a child's psychological development and the difficulty of identifying these relationships through traditional questionnaires. The paper provides a psychological analysis of graphic indicators in children's drawings (size of figures, spatial arrangement, pressure, and character of lines). The findings indicate that graphic deformations and compositional irregularities often reflect the child's internal anxiety, symbiotic attachment to the mother, or the father's marginalization within the family system. The study's conclusions hold practical value for school psychologists in the early diagnosis of hidden family conflicts.

KEYWORDS: *family sociogram, projective methodology, child psychology, graphic analysis, family relationships, psychodiagnostics.*

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

KIRISH. Ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor (autizm spektri, oligrofreniya, intellektual yetishmovchilik, demensiya, ruhiy rivojlanishning sustlashuvi kabilar) bolalarni oilaviy hayotga tayyorlash murakkab psixologik jarayon bo'lib, u bolaning jamiyatda o'z o'rnini topishini ta'minlovchi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Bu borada xorij hamda o'zbek psixologlari ko'p yillardan beri tadqiqotlar olib boradi ulardagi umumiy qonuniyatlarni o'rganib keladi. Ammo ularni oilaga tayorlash ishlari tizimli yo'lga qo'yilmagan. Bunga sabab bir qancha bo'lsada bu muammoni o'ganish va bartaraf etishning muhimligi barcha omillarni chetlab o'tishga undaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqolamizning metodologik asosi sifatida L.S. Vigotskiyning bolalardagi ruhiy nuqsonining tuzilishi haqidagi qarashlariga e'tibor qaratamiz. Muallif ta'kidlashicha, boladagi "birlamchi nuqson" (biologik omil) emas, balki undan kelib chiquvchi "ikkilamchi nuqson" (ijtimoiy muhit bilan muloqotning buzilishi) bolaning oilaviy hayotga moslashishiga to'sqinlik qiladi. Bola nuqsoni tufayli emas, balki ushbu nuqsonning ijtimoiy oqibatlari natijasida shaxs sifatida shakllanishda qiynaladi"[Выготский Л.С. Основы дефектологии. - Москва.: Лань, 2003. – 14-18 с,]. Bu shuni anglatadiki ruhiy rivojlanishdagi muammoli bolalarning nuqsoni asl muammo emas ularning muomila qilish uslubi va o'zgacha individualligiga moslasha olmagan kattalarning pozitsiyasidir.

G'.Shoumarov o'z tadqiqotlarida nuqsoni bor bolalarning oiladagi o'rni va ularning ota-onalari bilan munosabatlarini tahlil qilar ekan, shunday ta'kidlaydi, "bolani oilaviy hayotga tayyorlashda eng katta to'siq - bu ota-onalarning "giperopeka" (haddan tashqari vasiylik) munosabatidir. Nuqsoni bor bolani mustaqil hayotga tayyorlashda oilaviy muhitning psixologik sog'lomligi va bolaning maishiy mehnatga jalb etilishi hal qiluvchi ahamiyatga ega".[Shovumarov G'. Oila psixologiyasi. - Toshkent.: Sharq, 2010. – 82-85 b] Darhaqiqat deyarli barcha jamiyatlarda aqliy nuqsoniga ega bolalarga nisbatan ota-onaning va atrofdagilarning yuqori darajada g'amxo'rligi, himoyasi va nazorati hatto u uddalay oladigan mayda vazifalardan ham tiyishga harakat qilishadi. Natijada o'ziga juft tanlashda, jufti bilan bo'ladigan munosabatlarda bolani ong ostidan siqib qo'yadi.

Bu borada, S.Y.Rubinshteyn ko'p yillar davomida shunday bolalarning kognitiv va emotsional holatini va rivojlanishini o'rganar ekan, ruhiy rivojlanishdagi nuqsoni mavjud bolalarda oilaviy rollarni anglash darajasi pastligini ko'rsatib o'tgan. U bolaning xulq-atvori va emotsional reaksiyalarini korrektsiya qilish orqali ularni "oddiy oilaviy model"ga o'rgatish mumkinligini isbotlagan. U, bu borada shunday ta'kidlaydi, "Aqli zaif bolalarda ijtimoiy normalarni o'zlashtirish mexanik tarzda kechadi, shuning uchun ularga oilaviy munosabatlarni aniq vaziyatli misollar orqali o'rgatish lozim"[Рубинштейн С.Я. Психология умственно отсталого школьника. - Москва.: Просвещение, 1986. – 112-115 с]

Ruhiy rivojlanishda nuqsoni bor bolalarni oilaviy hayotga tayorlash bu ularni psixologik sog'lomlashtirish bilangina amalga oshmaydi. Bunda oilaviy muhit asosiy rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday oilalarda deyarli konstruktiv bo'lmagan tarbiya uslublari qo'llanadi. Misol uchun gipoproteksiya, ya'ni shunday bolalarni ota-onalar tomonidan haddan tashqari himoya qilishi. Bunday oilalardagi birinchi muammo shundaki, bolaning nuqsonidan uyalish, jamoa ichiga olib kirishdan qochish holatlari uchraydi. Bu esa bolalarda yondosh muammolar hususan turli hil psixologik travmalarni keltirib chiqaradi. Bu muammoni tadqiq qiligan

V.I.Lubovskiy tadqiqotlarida ruhiy rivojlanishi sust bolalarning "ota", "ona", "turmush o'rtoq" rollarini tushunish darajasi o'rganilgan. Uning aniqlashicha, bunday bolalar oilani faqat "ovqatlanish va uxlash joyi" deb bilishadi, uning ijtimoiy-psixologik funksiyalarini anglamaydilar. U o'z kitobida aqliy zaif shaxslarni oilaviy hayotga tayyorlashda ularga rollarni simulyatsiya o'yinlari orqali, ya'ni "ota nima qiladi", "ona qanday g'amxo'rlik qiladi?" kabi savollar asosida ko'rgazmali o'rgatish zarurligini aytib o'tadi.

Ushbu adabiyotlar tahlili asosida to'plangan ma'lumotlarga tayangan holda bir o'z tadqiqotimizni quyidagi metodikalarga asoslangan holada amalga oshirdik.

1. Ruhiyatidagi muammosi mavjud bolalarning oilaviy muhitini ya'ni oila a'zolari bilan bo'ladigan munosabatlarini, bir so'z bilan aytganda ular orasidagi psixologik va ijtimoiy masofani proyektiv usulda o'rganish;

2. Psixologik treninglar orqali ota-onalarga bolaning imkoniyatlarini real baholashni o'rgatish;

Ushbu maqolani yozishda quyidagi metodlardan foydalaniladi:

- Qiyosiy tahlil: Oddiy rivojlanayotgan va ruhiy nuqsoni bor bolalarning oila haqidagi tasavvurlarini solishtirish.

- Suhbat va so'rovnoma: Ota-onalarning farzandlarini mustaqil hayotga tayyorlashga bo'lgan munosabatini aniqlash (Eydemillerning "Ota-onalarning munosabati" metodikasi asosida).

- Korreksion-pedagogik kuzatuv: Bolaning kundalik maishiy ko'nikmalarni o'zlashtirish dinamikasini o'rganish.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Tadqiqotimizning ushbu bosqichida rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning oiladagi o'zaro munosabatlarni qanday

ISSN: 3060-4761
TerDPI ILMIY XABARNOMASI / SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI / НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

idrok etishini vizual-proyektiv usulda o‘rgandik. E.G.Eydemillerning “Oilaviy sotsiogramma” metodikasi bizga bolaning ichki dunyosidagi oila obrazini raqamlar va chizmalar tilida tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot obekti sifatida Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning tadqiqot maqsadiga mos keladigan 17 nafar o‘quvchisi hususan 10 nafar o‘g‘il va 7 nafar qiz bola tanlab olindi. Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, tadqiqotda ishtirok etgan bolalarning 55 foizida “Ona” va “Men” doirachalari bir-biriga juda yaqin, hatto bir-birini qoplagan holda chizilgan. Bu holat maxsus psixologiyada onaga bo‘lgan haddan tashqari kuchli emotsional bog‘liqlik sifatida baholanadi. Bola o‘zini onasiz alohida subyekt sifatida tasavvur qila olmaydi. Bu esa bolaning mustaqil qaror qabul qilishi va ijtimoiy rollarni (ota, ona, turmush o‘rtoq) egallashida jiddiy to‘siq bo‘lishi mumkin.

Ishtirokchilarning 20 foizida o‘zini ifodalovchi doiracha aylananing eng chetiga, boshqa oila a’zolaridan sezilarli masofada joylashtirilgan. Bunday “izolyatsiya” holati bola oiladagi muloqot tizimidan tashqarida ekanligini, o‘zini tushunilmagan yoki e’tibordan chetda qolgan deb his qilishini ko‘rsatadi. Bu ko‘pincha bolaning nuqsoni tufayli oilada yuzaga keladigan psixologik yuk va ota-onaning bolaga nisbatan ko‘rsatadigan sovuq munosabati natijasidir.

Chizmalarda “Ota” doirasi ko‘p hollarda markazdan uzoqda yoki boshqalarga nisbatan kichikroq hajmda tasvirlangan. Bu natija shuni ko‘rsatadiki, rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ongida “Ota” obrazi yetakchi tarbiyachi yoki emotsional tayanch sifatida emas, balki masofadagi shaxs sifatida shakllangan. Aksincha, “Ona” doirasi markaziy o‘rinni egallab, bolaning asosiy xavfsizlik manbai sifatida namoyon bo‘ladi. 15% respondent esa nisbatan o‘z oilasi bilan normal munosabat o‘rnatishi ma’lum bo‘ldi. Qolgan 10 % respondent esa noaniq pozitsiyaga ega. Bolalar tomonidan doirachalarning hajmi va masofasini tanlash ularning ongsiz ravishda oiladagi hokimiyat va mehr taqsimotini qanday ko‘rishini ochib berdi. Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarda oilaviy rollarning klassik modeli bo‘lmish (ota – himoyachi, ona – g‘amxo‘r) holatdan ko‘p hollarda og‘ish ko‘zga tashlanadi. Bolalar umumiy metodika qoliplariga tushmaydigan, biroz noodatiy rasmlarni ham chizishdi. Masalan bir autizm spektri tashxisi qo‘yilgan o‘quvchi quyidagi rasmni chizdi 1-rasmga qarang. Rasm haqida so‘ralganda ota-onasini chizichni hohlamasligini faqat o‘rtoqlarini chizganini ta’kidladi. Bu shuni anglatadiki, oilasini chizishni istamaslik, ijtimoiy e’tiborni oiladan ko‘ra do‘stlariga qaratganligi. oilasi bilan ijtimoiy aloqa yo‘qligi, Rasm atrofidagi takroriy aylana chiziq esa, Autizm bolalarda uchraydigan takrorlanuvchi manosiz harakatdan darak bo‘lishi mumkin. Asosi qora rang esa ichki xavotir, stress, noaniqlik va o‘zini himoya qilish istagi bo‘lishi mumkin.



O‘yinlar orqali bolalarning “Ota” va “Ona” haqidagi tasavvurlarini sinab ko‘rdik. Biz shunchaki savol-javob qilib qolmasdan, ularga kichik bir oila hayotini sahnada ko‘rsatib berishni taklif qildik. Maqsadimiz - bu bolajonlar o‘z ota-onalarini qanday ko‘rishini va kelajakda o‘zlarini shu rollarda tasavvur qila olish-olmasligini bilish edi. O‘yin davomida bitta narsa yaqqol ko‘zga tashlandi: bolalarning ko‘pchiligi uchun ota - bu faqat ishlaydigan odam.

O‘g‘il bolalarga ota rolini berganimizda, ular bir oz jiddiylashib, qo‘llariga “pult” yoki “telefon” ushlab olishga harakat qilishdi. Bu shuni ko‘rsatadiki, aqliy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar otaning vazifasini oiladagi hissiy yaqinlikda emas, balki ko‘proq tashqi ko‘rinish va ma’lum bir “status”da ko‘rishadi. Ular uchun ota - biroz uzoqroqdagi, haybatli shaxs.

Ona rolida bolalar birdan jonlanib ketishdi. Qizlar ham, o‘g‘il bolalar ham “ona” deganda darrov ovqat pishirish, kiyim artish yoki urishib berishni ko‘rsatib berishdi.

Shu joyda bitta narsani sezdim: Bolalar onasining har bir harakatini, hatto gapirish ohangigacha juda aniq nusxalashadi. Masalan, bitta bolamiz qo‘g‘irchoqni ovqatlantirayotib, xuddi onasiga o‘xshab “shunaqa qilsang, dadangga aytib beraman” deb qo‘rqitdi. Demak, onaning har bir gapi bolaning ongiga muhrlanib qolmoqda. Lekin onaning “mehr beruvchi” va “tinglovchi” sifatidagi roli o‘yinlarda biroz kamroq ko‘rindi - bolalar ko‘proq onaning uy yumushlari bilan bandligini birinchi o‘ringa qo‘yishdi.

Bu natijalar bolalarning dunyoqarashi naqadar cheklanganini, lekin shu bilan birga, ular atrofni qanchalik kuchli kuzatishini isbotladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, aqliy zaif bolalar uchun rollarni shunchaki tushuntirish foydasiz. Ularga xuddi mana shunday o‘yinlar orqali “Ota bo‘lish - bu mas’uliyat”, “Ona bo‘lish - bu cheksiz mehr” ekanligini

amalda ko‘rsatish kerak. Bu o‘yinlar ularning kelajakdagi real hayotiga qo‘yilgan kichik, lekin juda muhim poydevordir. Nega bolalarimiz shunday o‘ylaydi?

O‘tkazilgan testlar va o‘yinlardan keyin olingan natijalarni bir joyga jamlab, chuqurroq o‘ylab ko‘rsak, juda muhim xulosalar kelib chiqadi. Bu qismda biz “Nega aqliy rivojlanishi sust bolalar oilaviy rollarni aynan shunday (biroz boshqacha) tushunadi?” degan savolga javob izladik.

1. Hayotiy tajribaning yetishmasligi

Lubovskiy kitobida aytilganidek, bu bolalar ma’lumotni havoda ilib olisholmaydi. Ularning tasavvurlari faqat o‘zlari har kuni ko‘radigan narsalar bilan cheklangan. Masalan, agar oilada ota faqat kechqurun kelib, televizor ko‘rib o‘tirsa, bola uchun “Ota” roli shundan iborat bo‘lib qoladi. Bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, bolalar rollarni yurakdan his qilishdan ko‘ra, ko‘proq shablon sifatida ko‘rishadi. Ya’ni, ular o‘yinlarda onasining mehrini emas, balki uning oshxonadagi harakatlarini ko‘proq takrorlashdi.

2. Hissiy bog‘liqlikning kuchi va xavfi

Eydemiller testi natijalari bizga bolaning onasiga qanchalik qattiq bog‘langanini ko‘rsatdi. Bu bir tomondan yaxshi - bola o‘zini xavfsiz his qiladi. Lekin ikkinchi tomondan, bu “haddan tashqari yaqinlik” bolaning mustaqil shaxs bo‘lishiga xalaqit beryapti. Bola o‘zini onasiz tasavvur qila olmagani uchun ham, o‘yinlarda o‘ziga ota yoki ona rolini olishga biroz qo‘rqib, ikkilanib yondashdi.

3. Muloqotdagi bo‘shliqlar

Biz yana bir narsani payqadik: oilada ota-ona bolasi bilan “katta odamdek” gaplashmas ekan. Ko‘p ota-onalar bolam baribir tushunmaydi deb, unga oiladagi muammolarni yoki quvonchli vaziyatlarni tushuntirishmaydi. Bizning o‘yinlarimizda bolalar oddiy maishiy muammolar masalan, “uyda non qolmasa nima qilish kerak?” degan oddiy savollar oldida dovdirab qolishgani aynan mana shu tajribasizlikdan dalolat beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bolalarning bu boradagi bilimlarini faqat dars o‘tib to‘g‘rilab bo‘lmaydi. Ularga oiladagi munosabatlarni jonli ko‘rsatish, ularni kichik-kichik mas’uliyatli ishlarga jalb qilish kerak. Shundagina ular kelajakda “Men ham ota bo‘la olaman” yoki “Men yaxshi ona bo‘laman” deb ishonch bilan ayta olishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.Выготский Л.С. Основы дефектологии. - Москва.: Лань, 2003. - 654 с.
2.Shovumarov G‘. Oila psixologiyasi. - Toshkent.: Sharq, 2010. - 216 b.
3.Рубинштейн С.Я. Психология умственно отсталого школьника. - Москва.: Просвещение, 1986. - 192 с.
4.Mo‘minova L. Maxsus pedagogika. - Toshkent.: Iqtisod-moliya, 2013. - 280 b.
5.Эйдемиллер Э.Г., Юстицкис В. Психология и терапия семьи. - Санкт-Петербург.: Питер, 1999. - 656 с.
6.O.Eshmuradov “Rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari” TerDPI ILMIY XABARNOMASI 2025/ №1 133-bet

Internet manbalari:

1.ZiyoNET kutubxonasi - library.ziyonet.uz (https://library.ziyonet.uz/)
2.CyberLeninka — cyberleninka.ru (https://cyberleninka.ru/)
3.PsycINFO / APA PsycNet - psycnet.apa.org (https://psycnet.apa.org/)